

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11607689>

NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTINING PEDAGOGIK-TARBIYAVIY TA'SIRI

Shomurotova Nilufar Davronbek qizi

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 212-guruh talabasi

Yangiboyev Sanjarbek

Urganch davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali siz tasavvufning buyuk amaliyotchilaridan biri Najmiddin Kubroning hayot tarzi, asarlari, ruboiylari, qimmatli fikrlari haqida bilimlarga ega bo‘lasiz. Alloh tomonidan berilgan ma’naviy borliq, ya’ni nafsn qanday yengish yo‘llari haqida bilib olasiz. Insonni tubanlashtiradigan holatlar haqida, ruhni siqilishi, qo‘rquiv, qalban alam kabi hislarning paydo bo‘lishi haqida bilimlarga ega bolasiz.

Kalit so‘z: *Najmiddin Kubro, falsafiy mushohadalar, nafs, shayton, tasavvuf, so‘fiylik, axloqiy tarbiyalash, javonmardlik g‘oyalari.*

Kirish: Najmiddin Kubro tasavvufning buyuk amaliyotchilaridan biridir, ungacha Xorazm xalqi ushbu ta’limotdan bebahra edi. Ulug‘ shayx amaliy faoliyati xulosalarini “Favoyih ul-jamol va favotih ul-jalol” (“Jamol xushbo‘yliklari va jalolning kashfi”), “Al-usul al-ashara” (“O‘nta usul”) nomli kitoblarida jamlab tasnif etgan. Hoji Xalifa Najmiddin Kubroning arabcha asarlari sonini sakkizta deb ko‘rsatadi. Shayxning fors tilida yozgan “Fi odobus solikin” (“Soliklar odobida”) nomli risolasi ham bor. Najmiddin Kubro aksar so‘fiy shayxlar kabi ruboiy yozish bilan shug‘ullangan. Uning

ruboiylari shayxning qarashlari, ichki dunyosi, botiniy kechinmalarini bilib olishimizga yordam beradi. Har holda badiiy ijod kishining qalbi va ruhini yorqinroq aks ettiradi. Shayx ruboiylari ichida nafsni mazammat etuvchilari, ilohiy ma’rifat asrorining kashfidan xursandlikni ifodalovchilari, darvesh kechinmalarini, so‘fiyona dard-hayajonlarini beruvchi va umuman komil insonning qarashlarini aks ettiruvchilari bor. Najmiddin Kubro ruboiylarida falsafiy mushohadalar, tavakkal, taqdir haqida, olamning tuzilishi haqida o‘ylar aks etgan. Bu jihatdan uning bir necha ruboysi Umar Xayyom ruboiylariga mazmunan o‘xshab ketadi.

Uning eng asosiy falsafiy qarashi bu – “Olami kubro” va “Olami sug‘ro” ta’limotidir. Kubroning bu ta’limoti xuddi g‘arb falsafasi namoyandalarining “Makrokosmos” va “Mikrokosmos” g‘oyalari bilan deyarli bir xildir. Biroq, ga’ shundaki Kubro bu ta’limotini ulardan avval ilgari surgan. Kubroning ta’kidlashicha “Olami sug‘ro”dagi, ya’ni insondagi bor unsurlar “Olami kubro”da ham mayjuddir. Yoki aksincha “Olami kubro”dagi narsalar “Olami sug‘ro”da ham mavjuddir. Najmiddin Kubro o‘zining “Odob us-so‘fiya” asarida so‘fiylar (mutasavviflar) xirqasi haqida shunday deydi: “Xirqa cho‘ntagi sir-asror makoni va xalq ‘anohidir, ya’ni kimki menga o‘z sir-asrorini aytsa, uni oshkor etmasligim va kimki mendan ‘anoh istasa, uni ‘anohimga olishim shart, garchi u kofir bo‘lsa ham. Shuningdek, xirqa etagi tariqat yo‘li bo‘lib, uni musulmon birodarim ustiga tashlab, uni himoya qilaman”. Kubro inson ruhiy kechinmalari, nozik holatlarini puxta bilgan. Shunga muvofiq "latoif" ("nozik ta’blilik") nazariyasini ishlab chiqqan. Bu nazariyaga ko‘ra, inson ruhi ko‘zga ko‘rinmas latif markazlardan iborat. Bu ong va tuyg‘u, ruh va jism orasidagi bir narsa. Uni ilg‘ab olish mushkul. Ammo inson hayotida bu markazlarning ahamiyati muhim. Sufiy ayni shu markazlarni ilg‘ab olishi lozim. Ana shu "latoif" insonning ilohiy hislatidir. Sufiy riyozatlar, mashqlar davomida bu latoifni turli holatlarning o‘zgarishi, ranglar va shakllarning almashinishi tarzida tasavvur qiladi. Kubro nazarida nuqta, dog‘ va doira murid ruhiy qolatlari o‘zgarishida muhim xizmat qiladi. Doira — falak doiralarining aylanishi, dog‘ — dunyo timsoli, nuqta — vaxdatdir. Doira doimiy aylanishda, u dog‘ni ham o‘z ichiga oladi. Ammo bo‘lar markaz tomon, ya’ni nuqta

sari intiladi. Nuqta mohiyatini anglash orqali Alloh olamini idrok etsa bo‘ladi. K.da ranglar muhim rol o‘vvaydi, ular sufiyning ruhiy holatlarini, Alloh tomon qo‘ygan qadamining bosqichlarini bildirib turadi. Zangori rang solikning tavba qilib tariqatga qadam qo‘yganida ko‘rinadi. Sariq rangda solikning Alloh yodi bilan yashashi tushuniladi. Qizil rang solikning ruhi vujudidan ajrala boshlaganini, ma’rifatga yaqinlashganini bildiradi. Oq rang yurakning poklanishiga ishora va haqiqatni anglashning boshlanishidir. Yashil rang vahiylikdan nishova. U sirlarning siriga, g‘aybga oshnolikni bildiradi va solikning asl mohiyatlarga yetishayetganligini ham anglatishi mumkin. Mazkur ranglar solikning Alloh tomon ruhiy safarini anglatsa, qora rang Alloxdan xalq sari safarini bildiradi, sirlar xazinasini eg‘allashni va hayratga g‘arq bo‘lishini ifodalaydi. Hayratdagi ruh shariatning mag‘zi — hikmatini boshqatdan idrok etib, qorong‘i bir dog‘ rangiga o‘raladi. Nihoyat solik ruhi yana Alloh huzurida paydo bo‘ladi. U qora rangdan qutulib, rangsizlik holatiga kiradi. Zoti kull (barcha haqiqatga yetishish) darajasini egallagan solik yakranglik holatida maqsadiga erishadi. Najmiddin Kubrodagi ranglar va ularning ma’nolari ba’zi mutassaviflar ta’riflagan ranglarning sharhidan farq qiladi. Kubro yetti rang hislatini yetti tushunchaga moslab tushuntirgan. Uningcha, oq rang — islomni, sariq rang — imonni, zangori rang — ehsonni, yashil rang — itminon (ishonch)ni, ko‘k rang — iqon (to‘liq ishonch)ni, qizil rang — irfonni, qora rang — hayajon (hayrat)ni anglatadi. Solik ruhi holatlarini, qaysi rang ko‘z oldida namoyon bo‘layotganini piriga aytib turishi kerak. Pir shunga qarab, muridning qaysi bosqichda turganini bilib, unga yangi vazifalar yuklaydi. Keyingi sufiylar ham Kubro singari qora rangni hayrat belgisi hisoblab, uni ruhning fanoga g‘arq holati ramzi sifatida ta’kidlashgan. So‘fiylar fikrlash, o‘ylash yo‘li bilan Xudoni bilishga harakat qilmaydilar, balki axloqiy komillikka erishish yordamida o‘z qalblari, tabiatlari va jismlarini no‘okliklardan ‘oklashga intiladilar. So‘fiylikka bo‘lgan intilish insonni komillik axloq haqqqa yetishish, unga muhabbat, tavba, sabr, qanoat, shijoat, to‘g‘rilik, ehson, rostgo‘ylik, samimiylilik, nafsnii tiyish va undan g‘olib kelish har qanday insonning qalbini chirkin illatlardan tozalaydi. Shu nuqtai nazardan olganda, sufiylik axloqi bugungi kunnig talablariga ham javob beradi. Hikmatlarda axloqiy

qarashlar bugungi kundagi axloqiy me'yorlarga zamin tayyorlaydi. Ular bugungi kunda ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Zero, nafsni tiyish bugungi kunda ham jamiyatdagi barcha illatlarga, axloqsizliklarga barham bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bertels Ye. E., Sufizm i sufiyskaya literatura, M., 1965; Komilov N., Najmiddin Kubro, T., 1995; Jo'zjoni A. Sh., Tasavvuf va inson, T., 2001.
2. Xurshid Davron. Shahidlar shohi yohud Shayx Kubro tushlari. (<http://kh-davron.uz/ijod/kitoblar/xurshid-davron-shahidlar-shohi-najmiddin-kubro-tushlari-01.html>) Tarixiy-ma'rifiy qissa. I nashri: T."Yangi asr avlod", 1998. II nashr: T. „Fan“, 1998.
3. "Xorazm mutafakkirlarining pedagogik qarashlari " fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma Urganch-2023